

ARTIKULYATSIYA APPARATINING RIVOJLANISHIDA O'YIN TEKNOLOGIYALARINING O'RNI

Djurakulova Lola Raxmonberdiyevna

*Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti
"Maktabgacha ta'lim nazariyasi va metodikasi" kafedrası o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalar nutqini rivojlantirishda o'yin texnologiyalarining ahamiyati, xususan, artikulyatsiya apparati rivojlanishidagi o'yin metodlarining o'rni ko'rib chiqilgan. Maqolada o'yin texnologiyalarining artikulyatsion motorikani rivojlantirishga ta'siri, sensor va kinestetik o'yinlarning logopedik mashg'ulotlaridagi qo'llanilishi tahlil qilingan. Innovatsion o'yin texnologiyalarining logopedik amaliyotga joriy etilishi natijasida bolalarda artikulyatsiya va nutq rivojlanishini tezlashtirishda samarali yondashuvlar taqdim etilgan.

Аннотация: В данной статье рассматривается важность игровых технологий в развитии речи детей, особенно в процессе формирования артикуляционного аппарата. Проанализированы влияние игровых технологий на развитие артикуляционной моторики, использование сенсорных и кинестетических игр в логопедических занятиях. Рассмотрены инновационные игровые технологии, которые помогают ускорить развитие артикуляции и речи у детей, предлагая эффективные методы для логопедической практики.

Abstract: This article examines the importance of game technologies in children's speech development, particularly in the process of articulatory apparatus development. The influence of game technologies on the development of articulatory motor skills, the use of sensory and kinesthetic games in speech therapy exercises, is analyzed. Innovative game technologies are presented as effective approaches to accelerate articulation and speech development in children, offering valuable methods for speech therapy practices.

Kalt so'zlar: artikulyatsiya apparati, logopedik o'yin texnologiyalari, nutq rivojlanishi, sensor o'yinlar, innovatsion o'yin texnologiyalari, virtual mashg'ulotlar, artikulyatsion mashqlar,

Ключевые слова: артикуляционный аппарат, логопедические игровые технологии, развитие речи, моторика, сенсорные игры, инновационные игровые технологии, мультимедийные игры, виртуальные занятия, артикуляционные упражнения

Keywords: articulation apparatus, speech therapy game technologies, speech development, motor skills, sensory games, innovative game technologies, multimedia games, virtual training, articulation exercises

Nutq – insonning eng muhim kommunikativ vositalaridan biri bo'lib, uning to'g'ri shakllanishi bolalik davridan boshlab qo'llab-quvvatlanishi lozim. Artikulyatsiya apparatining rivojlanishi to'g'ri nutq shakllanishining asosi hisoblanadi. Bolalar orasida

artikulyatsiya buzilishlari keng tarqalgan bo'lib, ularning bartaraf etilishi maxsus logopedik mashqlar va texnologiyalar orqali amalga oshiriladi.

Zamonaviy ta'lim tizimida o'yin texnologiyalari pedagogik jarayonning ajralmas qismi sifatida nutq va artikulyatsion motorikani rivojlantirishga xizmat qiladi. O'yin orqali bolaning nutq faolligi ortadi, artikulyatsiya mushaklari mustahkamlanadi va to'g'ri talaffuz shakllanadi. Shu sababli, o'yin texnologiyalarining artikulyatsiya apparati rivojlanishidagi o'rni ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Artikulyatsiya apparati – inson nutq tovushlarini hosil qilishda ishtirok etuvchi organlar majmuasi bo'lib, u markaziy va periferik qismlarga bo'linadi. Artikulyatsiya apparatining tuzilishi va funksional xususiyatlarini o'rganish logopediya, lingvistika va tibbiyot sohalarida muhim ahamiyat kasb etadi. Artikulyatsiya apparati inson nutq faoliyatining muhim tarkibiy qismi bo'lib, uning to'g'ri rivojlanishi muloqot samaradorligini oshiradi. Artikulyatsiya organlarining anatomik va fiziologik xususiyatlarini chuqur o'rganish orqali logopedik muammolarni aniqlash va tuzatish mumkin. Artikulyatsion mashqlar va o'yin texnologiyalaridan foydalanish esa bolalarda to'g'ri talaffuz shakllanishiga yordam beradi.

Artikulyatsiya – bu nutq tovushlarini to'g'ri va aniq talaffuz qilish uchun artikulyatsiya organlarining muvofiqlashtirilgan harakati hisoblanadi. Artikulyatsiyaning rivojlanishi bolaning umumiy nutq madaniyatini shakllantirishda, to'g'ri talaffuzni egallashda va muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Artikulyatsiya jarayoni nutqning aniq va tushunarli bo'lishini ta'minlaydi. Agar artikulyatsiya organlari noto'g'ri ishlasa yoki yetarlicha rivojlanmagan bo'lsa, bola nutq tovushlarini buzib talaffuz qiladi, bu esa nutqiy muammolar (dislaliya, dizartriya va boshqalar) kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin.

Artikulyatsiyaning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi :

1. Tovushlarni shakllantirish – har bir tovush til, lab va tanglayning ma'lum bir holatda bo'lishini talab qiladi. Masalan, “s” tovushi til uchi va yuqori tishlar orasida havo oqimining o'tishi natijasida hosil bo'ladi.

2. So'zlarning to'g'ri talaffuzi – so'zlarni aniq talaffuz qilish uchun artikulyatsiya organlari muvofiqlashtirilgan harakat qilishi lozim.

3. Nutq tezligi va ravonligini ta'minlash – artikulyatsiya moslashuvchan bo'lsa, inson nutqi aniq va ravon bo'ladi.

4. Ekspressivlik va intonatsiya – ovoz balandligi, ohang va urg'u artikulyatsiya orqali boshqariladi.

Artikulyatsiyaning rivojlanishi bolalarda to'g'ri talaffuz va nutq madaniyatini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Nutqning aniq va tushunarli bo'lishi uchun artikulyatsiya organlari yaxshi rivojlangan bo'lishi kerak. Shuning uchun bolalar bilan maxsus artikulyatsiya mashqlari, logopedik o'yinlar va boshqa interaktiv usullar orqali ish olib borish lozim. Bolalarning artikulyatsiya apparati rivojlanishi tug'ilishdan boshlab bosqichma-bosqich shakllanib boradi. Ushbu jarayon bolalarning nutqini to'g'ri

rivojlantirish va aniq talaffuz qilish qobiliyatini shakllantirish uchun muhim ahamiyatga ega.

Bolalarning artikulyatsiya rivojlanishi bosqichma-bosqich amalga oshadi va har bir bosqichda nutq apparatining rivojlanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, bolaning to'g'ri talaffuz qilish qobiliyatini shakllantirish uchun maxsus artikulyatsion mashqlar, o'yinlar va logopedik usullardan foydalanish lozim. Vaqtida chora ko'rilmasa, bola kelajakda nutqiy muammolarga duch kelishi mumkin.

Shu mavzudagi olimlarning tadqiqot natijalariga ko'ra artikulyatsion motorikadagi muammolarni yechish uchun o'yin texnologiyalarining foydasi aniqlangan. O'yinlar bolalarda o'z-o'zini anglash, mavzuga bog'liq nutq tavsiyalarini bajarish va qo'llaniladigan metodlar orqali har xil ishlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Ham O'zbekistonda, ham chet elda o'yin texnologiyalarining artikulyatsiya rivojlanishidagi o'rni va samaradorligi aniqlangan bo'lib, buning natijasida innovativ logopedik tadqiqotlar yangi yo'nalishlarda rivojlanishga olib kelmoqda.

O'zbekistonda bolalarning artikulyatsiyasini rivojlantirish va o'yin texnologiyalarining bu jarayondagi o'rni bo'yicha bir qator tadqiqotlar olib borilgan. Masalan A. M. To'xtarov o'zining ishlarida bolalarga artikulyatsiya mashqlari orqali nutqni rivojlantirishning ahamiyatiga to'xtaladi. Uning tadqiqotlari o'yin texnologiyalari orqali nutqni ravonlashtirishga qaratilgan innovatsion metodlarning samaradorligini ko'rsatadi, G. N. Ochilova o'z ishida bolalarning artikulyatsiyasini rivojlantirishda sensor va kinestetik o'yinlarning ahamiyatini ko'rsatadi. Ushbu tadqiqotlar, o'z navbatida, bolalar nutqini rivojlantirishda qo'llaniladigan o'yinlarning samaradorligini aniqlashga yordam beradi.

Rossiyada A. P. Smirnov — “Artikulyatsionnoye razvitiye i korrektsiya rechi u detey” mavzusidagi ishi bilan tanilgan olim. U artikulyatsion motorika bilan bog'liq turli o'yinlarning yosh bolalarda nutqni rivojlantirishdagi samaradorligini ko'rsatgan. Smirnovning tajribasi O'zbekistondagi logopedik va pedagogik amallarga ilhom manbai bo'lib xizmat qilmoqda.

AQShda. L. C. Perera “Innovative Speech Therapy Approaches for Children” kitobida oilaviy va pedagogik o'quvlar orqali bolalarning artikulyatsiyasini rivojlantirishda o'yinlarning ahamiyatiga bag'ishlangan. Pereraning ilmiy ishi yangi texnologik usullarning bolalarning nutqini to'g'rilashga bo'lgan ta'sirini ko'rsatadi.

Buyuk Britaniyalik M. A. Kloefer "Games in the Development of Articulation Skills in Young Children" mavzuidagi tadqiqotida, o'yinlarning psixo-logopedik rivojlanishdagi muhimligini o'rgangan. Uning tadqiqotlari bolalarning artikulyatsiyasini jismoniy va muammolarga nisbatan faollashtirish uchun o'yinlar va kundalik amaliyotlarning ahamiyatini aniqlaydi.

O'yin esa bolalar hayotining ajralmas qismi bo'lib, ular orqali atrof-muhitni o'rganadilar, o'z fikrlarini ifodalashni o'rganadilar va nutq qobiliyatlarini rivojlantiradilar. Ayniqsa, nutqni shakllantirish va artikulyatsiya motorikasini rivojlantirishda o'yin texnologiyalaridan foydalanish katta ahamiyatga ega. Bolalar o'yin

jarayonida til, lab, tanglay, jagʻ va nafas olish organlarini faol ishlatish orqali tovushlarni toʻgʻri talaffuz qilish, nutq ohangini nazorat qilish va muloqot qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Oʻyin texnologiyalarining artikulyatsiya rivojlanishidagi roli quyidagicha:

- artikulyatsion organlarni mustahkamlash, yaʼni oʻyin jarayonida bola til, lab va jagʻ harakatlarini boshqarishni oʻrganadi. maxsus artikulyatsion oʻyinlar bolaning nutq apparatini mustahkamlashga yordam beradi. masalan: "kim tezroq aytadi?" oʻyini orqali bolaning lab va til moslashuvchanligi oshadi, "til gimnastikasi" mashqlari yordamida tovushlarni aniq talaffuz qilish shakllanadi.

- nutq tovushlarini shakllantirish, yaʼni bolalar nutqini rivojlantirishda ogʻzaki oʻyinlarning oʻrni beqiyos. oʻyin orqali bola tovushlarni aniq talaffuz qilishga oʻrganadi. masalan: "sirli tovush" oʻyini orqali bola muayyan tovushlarni ajrata oladi va toʻgʻri talaffuz qilishni oʻrganadi, "hayvonlar ovozi" oʻyini yordamida turli tovushlarni chiqarish orqali artikulyatsiya mustahkamlanadi.

- nafas olish va ovoz chiqarish qobiliyatlarini rivojlantirish, yaʼni nutqning toʻgʻri shakllanishi uchun nafas olish texnikasi muhimdir. maxsus oʻyinlar nafas olishni boshqarishga yordam beradi: "shamol va barglar" oʻyini (bola ogʻzi bilan qogʻoz barglarini uchirishga harakat qiladi), "puflab chiroq oʻchirish" (bola asta-sekin va kuchli havo chiqarmaslikka oʻrganadi). bunday mashqlar nafas olishni nazorat qilish va tovush chiqarish qobiliyatini rivojlantiradi.

Oʻyin va nutq rivojlanishi oʻzaro chambarchas bogʻliq boʻlib, oʻyin texnologiyalari artikulyatsiya rivojlanishida muhim oʻrin tutadi. Oʻyinlar bolaning til va nutq organlarini faollashtirish, nutq tovushlarini shakllantirish, nafas olish va ovoz chiqarish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu sababli, bolalar bilan ishlashda innovatsion va klassik oʻyin texnologiyalaridan keng foydalanish lozim. Oʻyin orqali bola nafaqat nutq qobiliyatlarini, balki muloqot madaniyatini ham rivojlantiradi.

Nutq rivojlanishi kechikkan yoki buzilgan bolalar bilan ishlashda oʻyin metodlari samarali vosita hisoblanadi. Logopedik mashqlar bolalarning nutq organlarini faollashtirish, aniq talaffuzni shakllantirish va artikulyatsiya motorikasini rivojlantirishga qaratilgan boʻlib, oʻyin metodlari bu jarayonni yanada qiziqarli va samarali qiladi. Bolalar oʻyin orqali nutq organlari bilan bogʻliq harakatlarni bajarishga, tovushlarni toʻgʻri talaffuz qilishga va nutq intonatsiyasini shakllantirishga oʻrganadilar.

Logopedik mashqlarda qoʻllaniladigan asosiy oʻyin metodlari

1. Artikulyatsion oʻyinlar, yaʼni ushbu oʻyinlar bolalarning artikulyatsion apparatini rivojlantirishga yordam beradi. "Til gimnastikasi" – til harakatlarini rivojlantirish uchun maxsus mashqlar (masalan, "Tilni qirqish", "Tildi shipga tekkizish"). "Kim toʻgʻri aytadi?" – bolalar nutq tovushlarini toʻgʻri talaffuz qilishga oʻrganadilar.

2. Nafas olish va fonatsion oʻyinlar, yaʼni nutq nafasini rivojlantirish va toʻgʻri ovoz chiqarishni shakllantirish uchun "Shamol esmoqda" (bolaning uzoq va teng nafas olishini mashq qildiradi), "Shamchani oʻchir" (bolaning nafasni boshqarish qobiliyatini

rivojlantiradi), "Pufla va harf chiqar" (bola havo chiqarish bilan birga ma'lum tovushni talaffuz qiladi) o'yinlardan foydalaniladi:

3. Differensial nutq o'yinlari. Bu turdagi o'yinlar bolaning tovushlarni farqlash qobiliyatini oshirishga yordam beradi. "Sirli tovush", "Hayvonlar qanday tovush chiqaradi?".

4. Lug'at boyligini oshirishga qaratilgan o'yinlar. Булар "Rasmga qarab so'z ayt" , "So'z top"

5. Rolli va muloqotli o'yinlar. Bolalar o'zaro muloqotga kirishib, nutqini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. "Do'kondagi suhbat", "Shifokor va bemor". O'yin metodlarining logopedik mashqlarda qo'llanilishi bolalarning nutq rivojlanishini jadallashtirishga yordam beradi. O'yin orqali bolaning nutq a'zolari mustahkamlanadi, talaffuzi to'g'rilanadi va muloqot qobiliyatlari rivojlanadi. Shu sababli logopedlar va pedagoglar o'yin texnologiyalaridan keng foydalanishlari lozim.

Artikulyatsion motorika — bu nutq a'zolarining (til, lablar, jag', yumshoq tanglay) harakatlanish qobiliyatidir. Bolaning to'g'ri va aniq talaffuz qilishi uchun uning artikulyatsiya apparati rivojlangan bo'lishi muhim. Artikulyatsion motorikani rivojlantirish uchun maxsus mashqlar va o'yinlardan foydalaniladi. Ushbu o'yinlar bolaning nutq organlarini mustahkamlash, ularning elastikligini oshirish va muayyan tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishga o'rgatishga yordam beradi.

Multimediali va interaktiv o'yin texnologiyalari logoped mashg'ulotlarida samarali natija beruvchi innovatsion vositalardir. Bunday o'yinlar bolalarning nutq rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatib, ularning talaffuz, leksik va grammatik ko'nikmalarini rivojlantiradi. Interaktiv yondashuv esa bolalar uchun qiziqarli muhit yaratib, ularni faol ishtirok etishga undaydi. Shu sababli, zamonaviy logopediya jarayonida multimediya vositalari va interaktiv o'yinlardan keng foydalanish dolzarb hisoblanadi.

Zamonaviy texnologiyalar va raqamli vositalar o'qitish va tarbiya jarayonini yangilashda katta ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, logopediya sohasida virtual mashg'ulotlar bolalarning nutq rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda samarali vosita sifatida foydalanilmoqda. Virtual logopedik mashg'ulotlar, logopedlar va bolalar o'rtasidagi interaktiv muloqotni ta'minlab, uy sharoitida ham nutqni rivojlantirish imkoniyatini yaratadi.

Virtual logopedik mashg'ulotlar – bu internet, kompyuter dasturlari yoki mobil ilovalar yordamida o'tkaziladigan mashg'ulotlardir. Ushbu mashg'ulotlar onlayn platformalar orqali amalga oshiriladi, bu esa bolalarga masofaviy ravishda o'qish va o'rganish imkoniyatini beradi.

Virtual logopedik mashg'ulotlar quyidagi asosiy elementlarni o'z ichiga oladi:

- audio-vizual materiallar – tovushli va ko'rish elementlarini o'z ichiga olgan dasturlar va ilovalar.
- interaktiv o'yinlar – bolaning faol ishtirokini ta'minlash uchun maxsus ishlab chiqilgan o'yinlar.

- onlayn maslahatlar – logopedlarning bola bilan masofaviy ravishda ishlash imkoniyatini yaratish.

Virtual mashg'ulotlar geografik joylashuvga qaramay, bola va logopedning muloqotini ta'minlaydi. Bunda, bola har qanday joyda o'qish va mashq qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bolalar uchun virtual mashg'ulotlar ko'pincha o'yin shaklida o'tkaziladi, bu esa ularning motivatsiyasini oshiradi. O'yinlar orqali bola ko'proq faoliyat ko'rsatadi va o'rganishni qiziqarli deb hisoblaydi. Virtual logopedik mashg'ulotlar bolalarning individual ehtiyojlariga qarab sozlanadi. Har bir bola uchun maxsus dasturlar tayyorlanishi mumkin. Virtual mashg'ulotlar bolalarga o'rgangan materiallarni uyda, istalgan vaqtda takrorlash imkoniyatini yaratadi. Bu esa nutqni yaxshilashda samarali bo'ladi.

Logopedlar va bolalar uchun videokonferensiya platformalari yordamida o'tkaziladigan mashg'ulotlar. Ushbu mashg'ulotlarda logoped bola bilan vizual muloqotda bo'lib, noto'g'ri talaffuzlarni tuzatadi va yangi tushunchalar o'rgatadi. Mobil ilovalar, masalan, "Logopedia" yoki "Speech Therapy", bolalar uchun nutqni rivojlantirishga yo'naltirilgan o'yinlar va mashqlarni o'z ichiga oladi. Multimediali o'yinlar va interaktiv platformalar yordamida bola nutqni rivojlantirishga qaratilgan mashqlarni bajaradi. Bunda bolalar tovushlarni aniq talaffuz qilish, so'z boyligini oshirish, grammatikani o'rganish kabi ko'nikmalarni rivojlantiradi.

Virtual logopedik mashg'ulotlar orqali bolalarga artikulyatsion motorika, yani virtual mashqlar orqali bola nutq mushaklarini rivojlantiradi, to'g'ri talaffuz va artikulyatsiya ustida ishlaydi; fonematik eshitish – multimediali o'yinlar orqali bola tovushlarni ajratish va ularni aniq talaffuz qilishni o'rganadi; so'z boyligi – o'yinlar orqali bola yangi so'zlar va ularning ma'nolarini o'rganadi; grammatika – virtual mashqlar orqali bola so'z birikmalarini va grammatik strukturalarni o'rganadi, so'zlarni to'g'ri joylashtirishni o'rganadi.

Virtual logopedik mashg'ulotlar, zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda, nutqni rivojlantirishda samarali vosita sifatida qaralmoqda. Onlayn platformalar va mobil ilovalar yordamida amalga oshiriladigan mashg'ulotlar bolalar uchun qiziqarli va motivatsion muhit yaratib, ularning nutq rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, bunday mashg'ulotlar individual yondashuvni ta'minlaydi va bolalarning nutq ko'nikmalarini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi.

Bundan tashqari, zamonaviy logopediya amaliyotida sensor va kinestetik o'yin texnologiyalari bolalar nutqini rivojlantirishda samarali vosita sifatida keng qo'llanilmoqda. Bu texnologiyalar asosan bolalar o'rtasida nutq va harakatlarni uyg'unlashtirishga yordam berish maqsadida ishlab chiqilgan. Sensor texnologiyalar va kinestetik o'yinlar, bolalarning sezgirlik, motorika va nutqni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega bo'lib, logopedik mashg'ulotlarda eng samarali vositalardan biri hisoblanadi.

Sensor o'yin texnologiyalari — bolalarning sezgi a'zolarini (ko'rish, eshitish, tegish) faol ishlatish orqali nutqni rivojlantirishga yordam beradigan o'yinlardir. Bu

texnologiyalar orqali bola turli xil sensory tizimlarni faollashtiradi, bu esa nutq rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Sensor texnologiyalar bolalarga nutqni eshitish va aniq talaffuz qilishda yordam beradi, shuningdek, bu texnologiyalar yordamida bola turli tovushlar va tebranishlarni sezib, talaffuzni yaxshilaydi. Ushbu o'yinlar bolalar uchun qiziqarli va jozibador bo'lib, ularning til va muloqot ko'nikmalarini yaxshilashga yordam beradi. Sensor o'yinlar, shuningdek, bolalar uchun yangi so'zlarni o'rganish va grammatik tushunchalarni mustahkamlashda ham samarali vosita hisoblanadi.

Kinestetik o'yin texnologiyalari — bolalar o'z harakatlari orqali nutqni rivojlantirishga qaratilgan mashqlarni o'z ichiga oladi. Bunda bola jismoniy faoliyatni bajaradi, bu esa ularning artikulyatsiya, motorika va nutqni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Kinestetik texnologiyalar bola jismoniy harakatlarni bajarishda nutq va motorikani uyg'unlashtirishga imkon beradi. Masalan, bolalar o'yinlarda turli jismoniy mashqlarni bajarish orqali artikulyatsiya apparatining harakatlarini takrorlaydi, nutqni yaxshilaydi. Bola turli harakatlarni bajarishda ovoz chiqarish, gapirish yoki qaysidir harakatlarni amalga oshirgan holda nutqni rivojlantiradi. Masalan, kichik bolalar uchun "Qushni topish" o'yini, unda bola qo'llarini harakatlantirgan holda ovoz chiqarishi mumkin. Raqs qilish yoki jismoniy mashqlarni bajarishda bola til va nutqni uyg'unlashtirgan holda harakat qiladi. Ushbu mashqlar ular uchun nafaqat qiziqarli, balki samarali bo'ladi. Kinestetik o'yin texnologiyalari bolalar uchun o'rgatishda muhim ahamiyatga ega, chunki ular bolalarning barcha sezgilarini faollashtirishga yordam beradi. Harakatni bajarish orqali bola nutqni faollashtiradi va uning muvofiqligini oshiradi.

Sensor va kinestetik o'yin texnologiyalarining logopediya jarayonida qo'llanilishi bolalarga nutqni rivojlantirishning innovatsion va samarali yo'llarini taqdim etadi. Ushbu o'yinlar bolalarning nutqni shakllantirish va sozlash jarayoniga faollik va ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Sensor va kinestetik o'yin texnologiyalarining logopediya amaliyotida qo'llanilishi bolalar uchun nutqni rivojlantirishda yangi va samarali imkoniyatlarni yaratadi. Ushbu o'yinlar bolalarning sezgirlik, motorika va nutqni uyg'unlashtirishda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, bolalar uchun o'rgatish jarayonini qiziqarli va motivatsion qilishga yordam beradi. Sensor va kinestetik o'yin texnologiyalari logopediya amaliyotining samaradorligini oshirishda kuchli vosita hisoblanadi.

Шундай қилиб, artikulyatsiya apparatining rivojlanishida o'yin texnologiyalarining o'zni, shu jumladan sensor va kinestetik o'yin texnologiyalarining logopediyada qo'llanilishiga alohida e'tibor qaratildi. O'yin texnologiyalari, ayniqsa, sensor va kinestetik o'yinlar, bolalar nutqining rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lib, nutq va motorikani uyg'unlashtirishga yordam beradi. Ushbu texnologiyalar bolalarning sezgilarini faollashtirishi, talaffuz va artikulyatsiya apparatini rivojlantirishda samarali vosita sifatida ishlatiladi. Sensor o'yin texnologiyalari bolalarga tovushlarni eshitish, so'zlarni ajratish, talaffuzni yaxshilashda yordam beradi, kinestetik o'yinlar esa jismoniy faoliyat orqali nutqni shakllantirishga, harakat va talaffuzni birlashtirishga imkon yaratadi. Shuningdek, bu o'yinlar bolalar uchun o'rganish jarayonini qiziqarli va motivatsion qilishga yordam beradi. Innovatsion o'yin texnologiyalarining logopediyada

qo'llanilishi, bolalarning nutq va motorik ko'nikmalarini rivojlantirishda yangi imkoniyatlar yaratadi. Ushbu texnologiyalarni logopediya amaliyotiga keng joriy etish bolalar uchun samarali o'qitish jarayonlarini tashkil etishda katta ahamiyatga ega. O'yin texnologiyalarining to'g'ri qo'llanilishi natijasida bolalarning artikulyatsiya apparati rivojlanadi, nutqni shakllantirish jarayoni esa yanada samarali bo'ladi.

Shu bilan birga, sensor va kinestetik o'yinlar, ayniqsa, nutq muammolari bo'lgan bolalar uchun ham juda foydali bo'lib, ularning rivojlanish jarayonini tezlashtiradi va ko'nikmalarini takomillashtiradi. Maqola natijalari, o'yin texnologiyalarining logopediya amaliyotiga joriy etilishi nutqni rivojlantirishning zamonaviy va samarali yo'llaridan biri ekanligini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Johnson, M. E. (2018). *Speech Development and Disorders in Early Childhood* – New York: Cambridge University Press. – 280 pages.
2. Smith, L. A., & Brown, R. M. (2015). *Innovative Speech Therapy Techniques for Children* – London: Routledge. – 220 pages.
3. Harrison, D., & White, A. (2017). *Interactive Technologies in Speech Therapy* – Oxford: Oxford University Press. – 180 pages.
4. Galloway, K. M. (2019). *Speech Therapy in the Digital Age: Integrating Technology into Practice* – San Francisco: Wiley-Blackwell. – 250 pages.
5. Martin, J., & Davis, P. (2016). *Virtual and Augmented Reality in Speech Therapy: Applications for Children* – London: Springer. – 300 pages.
6. O'Connor, C., & Stevens, M. (2014). *Digital Speech Therapy Tools: Enhancing Communication Skills in Children* – New York: Springer. – 230 pages.